

DORIVOR GULXAYRI O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI
HAMDA ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

MEDICINAL PROPERTIES OF MARSHMALLOW (ALTHAEA OFFICINALIS)
AND ITS IMPORTANCE IN MODERN MEDICINE

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА АЛТЕЯ ЛЕКАРСТВЕННОГО И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В
СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ

Mirzayeva Mutabar Azamovna

FarDU, Agrar Qo'shma fakulteti dotsenti

Muxtorova Madina Ahmadjon qizi

FarDU, Agrar qo'shma fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dorivor gulxayri (*Althaea officinalis* L.) o'simligining kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari va dorivorlik xususiyatlari yoritilgan. Gulxayri ildizi, bargi va gullarida uchraydigan shilliq moddalar, flavonoidlar, pektinlar hamda fenol birikmalarining organizmga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. O'simlikning yallig'lanishga qarshi, yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi va himoyalovchi xususiyatlari nafas yo'llari, ovqat hazm qilish tizimi hamda teri kasalliklarini davolashdagi ahamiyati bilan bog'liq holda bayon etilgan. Shuningdek, gulxayrining zamonaviy tibbiyotda fitopreparatlar, siroplar va yordamchi dori vositalari tarkibida qo'llanilishi, uning xavfsizligi va samaradorligi muhokama qilingan. Maqola dorivor gulxayrining xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqligini ko'rsatib, uni amaliy tibbiyotda kengroq joriy etish istiqbollarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Dorivor gulxayri (*Althaea officinalis* L.), dorivor o'simliklar, fitoterapiya, shilliq moddalar, yallig'lanishga qarshi ta'sir, balg'am ko'chiruvchi xususiyat, nafas yo'llari kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi, zamonaviy tibbiyot.

Annotation: This article discusses the medicinal properties and modern medical significance of the medicinal marshmallow plant (*Althaea officinalis* L.). The chemical composition and biologically active substances found in its roots, leaves, and flowers—such as mucilage, flavonoids, pectins, and phenolic compounds—are analyzed based on scientific sources. The plant's anti-inflammatory, emollient, expectorant, and protective effects are considered in relation to the treatment of respiratory tract, digestive system, and skin diseases. In addition, the use of marshmallow in modern medicine as a component of phytopreparations, syrups, and auxiliary medicinal products, as well as its safety and therapeutic effectiveness, is discussed. The article highlights the close connection between traditional medicine and modern healthcare and substantiates the prospects for wider application of medicinal marshmallow in medical practice.

Key words: Medicinal marshmallow (*Althaea officinalis* L.), medicinal plants, phytotherapy, mucilage, anti-inflammatory effect, expectorant properties, respiratory tract diseases, digestive system, modern medicine.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лекарственные свойства и значение лекарственного алтея (*Althaea officinalis* L.) в современной медицине. На основе научных источников проанализирован химический состав и биологически активные вещества, содержащиеся в корнях, листьях и цветках растения, такие как слизистые вещества, флавоноиды, пектины и фенольные соединения. Освещены противовоспалительные, смягчающие, отхаркивающие и защитные свойства алтея, а также его значение в лечении заболеваний дыхательных путей, пищеварительной системы и кожных болезней. Кроме того, рассмотрено применение алтея в современной медицине в составе фитопрепаратов, сиропов и вспомогательных лекарственных средств, а также его безопасность и эффективность. В статье показана тесная связь между народной медициной и современной системой здравоохранения и обоснованы перспективы более широкого внедрения лекарственного алтея в медицинскую практику.

Ключевые слова: Лекарственный алтей (*Althaea officinalis* L.), лекарственные растения, фитотерапия, слизистые вещества, противовоспалительное действие, отхаркивающие свойства, заболевания дыхательных путей, пищеварительная система, современная медицина.

KIRISH

Gulxayri (*Althaea*) — gulxayridoshlarga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar turkumi. Yevropa va Osiyoning o‘rta mintaqalarida 12 turi o‘sadi. O‘zbekistonda gulning bitta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor. Gulxayridoshlar to‘qaylarda, sug‘oriladigan maydonlarda va

boshqa yerlarda uchraydi. Gullari to‘g‘ri, 5 bo‘lakli, ikki jinsli. Gulxayri guli dorivor, manzarali o‘simlik, undan bo‘yoq olinadi. O‘zbekistonda Gulxayrining *Althaea rosea* turi manzarali va dorivor o‘simlik sifatida ko‘p ekiladi. Poyasi 1,5—2 m, yo‘g‘on, tuklar bilan qoplangan. Barglari

3—7 bo‘lakli, uzun bandli. Gullari yakka-yakka yoki 2—3 tadan barg qo‘ltig‘ida va poya ichida o‘rnashgan. Tojbarglari qat-qat joylashgan. Iyun—avgustda gullab, iyul—sentabrda urug‘laydi. Tojbarglaridan vino, sirka va bargga rang berishda hamda teri, shoyi va jun kabilarni bo‘yashda

foydalaniladi. Gulxayrining *A. Offi cinalis* turi dorivor o‘simlik sifatida tibbiyotda foydalaniladi. Uning ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt nafas yo‘llari kasalliklarida (ayniqsa bolalarda) balg‘am ko‘chirish, ko‘krakni yumshatish uchun va yallig‘lanishga qarshi, me‘da-ichak kasalliklarida esa o‘rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi.

Dorivor gulxayri ariq yoqalarida, ko‘l bo‘ylarida, o‘tloq, to‘qay, butalarorasida va boshqa nam yerlarda o‘sadi. Markaziy Osiyo hududida joylashgan Zaysan pastliklarida,

Qozog'iston mayda qumligida, To'rg'ay va Olako'l botig'ida, Balxash oldi dashtla-rida, Mo'yinqumda, Qoratog'ningoldi va orqa pas ttekisliklarida, Farg'ona vodiy -sida, Toshkent oldi cho'lida, Zarafsho ndaryo-si bo'ylarida, Jung'urAlatouda, Tyan-Shan-da (Chu-Iliytog'i, Iliyoldi Alatau, Kun-gey Alatau, Ketmentau, qirg'izAlatau, Ta -lassAlatau, Karatau) Pomir-Oloyda (Tur -kiston, Zarafshon, Hisor to g'tizmalari-da, Janubiy Tojikiston tog'oldi tekislik-larida), Kopetdog'da, Badxizdatarqalgan.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Dorivor gulxayri (*Althaea officinalis* L.) qadimdan xalq tabobati va keyinchalik ilmiy tibbiyotda keng qo'llanib kelinayotgan dorivor o'simliklardan biridir. Ushbu o'simlikning dorivorlik xususiyatlari ko'plab klassik va zamonaviy ilmiy manbalarda yoritilgan.

Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur "Al-Qonun fi-t-tibb" asarida gulxayrini yumshatuvchi, yallig'lanishga qarshi va yo'talni kamaytiruvchi vosita sifatida tavsiflaydi. U gulxayri ildizidan tayyorlangan damlama va qaynatmalarni tomoq og'rig'i, yo'tal hamda ichki yallig'lanishlarda qo'llash mumkinligini ta'kidlagan. Bu ma'lumotlar gulxayrining dorivor ahamiyati qadimdan e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Zamonaviy farmakognoziya manbalaridan biri bo'lgan V.L. Komarov tahriri ostidagi "Dorivor o'simliklar atlas"i hamda "Farmakognoziya" darsliklarida *Althaea officinalis* tarkibidagi shilliq moddalar (polisaxaridlar) asosiy biologik faol komponent sifatida ko'rsatiladi. Ushbu manbalarda gulxayri ildizi nafas yo'llari shilliq qavatini himoyalovchi, balg'am ko'chiruvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega ekani ilmiy asosda bayon etilgan.

X.K. Xolmatov va A. Ahmedov muallifligidagi "O'zbekistonning dorivor o'simliklari" asarida gulxayrining respublika hududida tarqalishi, xomashyo sifatida yig'ish va saqlash qoidalari batafsil yoritilgan. Mualliflar gulxayrining ildizi va barglari farmatsevtik sanoatda siropalar va fitopreparatlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Yevropa farmakopeyasi va Rossiya farmakopeyasida *Althaea officinalis* radix rasmiy dorivor xomashyo sifatida keltirilgan. Ushbu manbalarda gulxayri preparatlarining xavfsizligi, kam nojo'ya ta'sirga ega ekanligi va ayniqsa bolalar tibbiyotida keng qo'llanilishi qayd etilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar dorivor gulxayrining xalq tabobatidan tortib zamonaviy ilmiy tibbiyotgacha bo'lgan rivojlanish yo'lini ko'rsatadi. Manbalar ushbu

o'simlikning yuqori dorivor qiymatga ega ekanini tasdiqlab, uni fitoterapiyada istiqbolli o'simliklardan biri sifatida baholaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Chunonchi gulxayrining ildizida 35 % gacha shilliq moddalar, 37 % gacha kraxmal, 16 % ga yaqin qand, asparagin, betain, pektin, yogʻ, 4,9 % atrofida mineral tuzlar mavjud. O'simlikning barg hamda gullarida 0,02 % ga yaqin qattiq efir moyi, karotin, vitamin C, ildizlardagiga qaraganda ikki marta kam shilliq moddalar bor.

Dorivor preparatlari: Qaynatma, quruq ekstrakt, kukun (poroshok), sharbat. Kubik shaklida qirqilgan ildiz nafas olish yo'llari kasalliklarida ishlatiladigan turli yig'malar (*Species pectoralis* va boshqalar) tarkibiga kiradi.

Qaynatma ildizdan faqat sovuq suvda tayyorlanadi (mahsulotdan shilliq modda ajralib chiqadi, kraxmal suvda erimasligi sababli qaynatmaga o'tmaydi). Dorivor gulxayri o'simligining yer ustki qismidan ajratib olingan uglevodlar aralashmasidan „mukaltin“ nomli dorivor preparat olinadi.

„Mukaltin“ preparatini balg'am ko'chiruvchi dori sifatida yuqori nafas yo'llari va o'pka yallig'lanishi kasalliklarida ishlatiladi. Abu Ali Ibn Sino gulxayri ildizidan, bargidan va urug'laridan tayyorlangan damlama bilan yo'tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan. Buyuk tabib gulxayri ildizi asosida tayyorlangan dori-darmonlarni ko'krakni yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi omil sifatida tavsiya etgan.

Qishloq xo'jaligida: O'simlik poyasi qirqilmay, dalada qishga qoldiriladi, u qorni tutib qolishda yordam beradi, qop eriganida tuproqni o'yilib ketishdan saqlaydi. Yoxud 10-15 sm qoldirib, o'roq mashinada o'rib olinadi va molga ozuqa sifatida beriladi. O'rilgan poyalar daladan yig'ib olingach, bahorda qator oralari kultivatorda yumshatiladi, ayni vaqtda har gektar yerga 60 kg dan azotli o'g'itlar solinadi (aprel – may boshlarida). Shonalash oldidan (iyun boshlari), lekin o'simlik shox-shabballari tutashib ketguniga qadar, ikkinchi marta azotli o'g'it solinadi. Gulxayri hayotining ikkinchi yili (iyulning oxiri – avgust boshlarida) meva tugadi. Urug'lari poyasining 10

sm dan 230 sm gacha balandligida, asosiy qismi 60-180 sm oralig'ida joylashadi. Mevasi pishganidan keyin uzoq vaqt to'kilmay turadi, bu esa to avgust oyigacha urug' yig'ish imkonini beradi. Buning uchun gulxayri poyasining meva joylashgan qismlari o'roq bilan qirqladi, bog'-bog' qilib, xirmonga olib boriladi. Xirmonda g'alla yanchiydigan to'qmoqda yanchiladi. Urug' don sovurgichda tozalanib, elangach, qoplarga joylanadi. Ildizi ikkinchi yili, oktyabr oyida yoki erta bahorda, poyalari daladan mola, lavlagi yig'adigan yoki kartoshka kovlaydigan mashina yordamida yig'ib olinganidan keyin qaziladi. Qurigan ildiz 20-25 kg dan qilib qopga, 50 kg dan qilib qutilarga joylanadi va quruq, havo almashib turadigan xonada 3 yilgacha saqlanadi. Hosildorlik gektar hisobiga 20-22 sentnerni tashkil etadi.

Bargidan va urug'laridan tayyorlangan damlama bilan yo'tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolashda, gulxayri ildizi asosida tayyorlangan dori-darmonlarni ko'krakni yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi omil sifatida foydalaniladi. Gulxayri ildizi bu shilimshiqsimon sovuq suvda damlama shaklida, quruq ekstrakt, sirop, yo'talga qarshi

to'plam sifatida ishlatiladi. Dorivor gulxayri o'simligining yer ustki qismidan ajratib olingan uglevodlar aralashmasidan «Mukaltin» nomli dorivor preparat olinadi.

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunga kelib tabiiy xom ashyoga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda, shu jumladan dorivor gulxayri o'simligiga ham ehtiyoj yetarlicha ekanligini ko'rish mumkin. O'simlik o'ziga xos xarakterli gulining xushbo'y hid va ta'mga ega ekanligi sababli oziq-ovqat (ziravor), kosmetologiya, xalq tabobati va rasmiy tibbiyotda keng dorilar tayyorlash uchun foydalanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'. Paratov, L. Shamsuliyeva, E. Sulaymonov "Botanika" Toshkent 2010.
2. G.S.Tursunbayeva, G.M. Duschanova, J.S.Sadinov "Botanika" Toshkent 2020.
3. Zokirov Q.Z. Botanikadan Ruscha-o'zbekcha ensiklopedik lug'at 1-tom Toshkent «O'qituvchi», 1973 y.
4. O'.Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulcheyva. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. 2020-yil. 202-205-betlar
5. . Xolmatov X.X., Ahmedov O'.A. Farmakognoziya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Tursunov S., Rahimov B. Dorivor o'simliklar va ularning tibbiyotdagi ahamiyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.